
TARG'IBOT TADBIRLARI AHOLI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA XIZMAT QILADI

Ayni kunlarda Toshloq tumani FVB xodimlari tomonidan aholi o'rtasida yong'in, is gazidan zaharlanish, gaz va havo aralashmasining chaqnashi hamda boshqa favqulodda holatlarning oldini olish yuzasidan tegishli profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugun Zarkent hamda Chek MFYlarda o'tkazilgan profilaktik tadbirlarda aholi xonadonlarining yong'inga qarshi holati ko'zdan kechirildi. Mavjud muammolar bartaraf etish bo'yicha yo'l-yo'riqlar berilib, yong'inlarning, is gazidan zaharlanishning oldini olish borasida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borildi.

Shuningdek, xonadonlarda aholiga yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish bilan birga botulizm, ovqatdan zaharlanish, quturish kasalliklaridan saqlanish yuzasidan tavsiyalar berildi.

2023-01-21 14:36:28